

Termiz shahrida ham “Yangi nafas” ommaviy yugurish musobaqasi bo‘lib o‘tdi.



Termiz shahrida ham “Yangi nafas” ommaviy yugurish musobaqasi bo‘lib o‘tdi.

Termiz shahrida “Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan mamlakatimiz bo‘ylab tashkil etilgan “Yangi nafas” sport musobaqasida besh mingdan ortiq 7 yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan surxondaryolik ishtirok etdi.

Marofonga start berilgan Alisher Navoiy ko‘chasidagi “Surxon arena” sport majmuasida bo‘lib o‘tgan tantanali tadbirda so‘zga chiqqanlar yig‘ilganlarni “Navro‘z” umumxalq bayrami bilan tabriklab, musobaqa ishtirokchilariga muvaffaqiyat tiladi.

Ko'p ming yillik tarixga ega bayramning milliy qadriyat va urf-odatlarimizni keng tarannum etish hamda xalqimiz orzu-umidlarini ruyobga chiqarishdagi ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Vohada yangilanish va yasharish bayrami oldidan o'tkazilgan marofonga alohida tayyorgarlik ko'rib, musobaqa qatnashchilari uchun barcha sharoit yaratildi. Ularning xavfsiz, erkin yugurishi uchun bellashuvga start berilgan Alisher Navoiy ko'chasidan "Bolajon bog'i"i hududidagi finishgacha bo'lgan uch kilometr masofada obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Qatnashchilarning yo'l harakati, jamoat tartibi, yong'in va boshqa xavfsizligini ta'minlash uchun zarur choralar ko'rildi.

Image not found or type unknown

Musobaqa yakunida erkaklar va ayollar o'rtasidagi bellashuv g'oliblari diplom va qimmatli sovg'alar bilan taqdirlandi.





Image not found or type unknown

